

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№4

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026 APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari
08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afrovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

STRATEGIC INTEGRATION OF BUSINESS PLANNING AND FORECASTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES.....	11
Sharipov K.A., Ismatullayev T.R.	
ВКЛАД БАНКОВСКОЙ СИСТЕМЫ В СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МАХАЛЛЕЙ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН: МЕХАНИЗМЫ, ДИНАМИКА И СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ	21
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLARNI REJALASHTIRISH VA MOLIVAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISH.....	27
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
FERMER XO'JALIKLARINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SUBSIDIYA AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH.....	32
Xakimov Zafar Ibragimovich	
IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA DAVLAT INNOVATSION VA INVESTITSION SIYOSATINING O'RNI	38
Xaydarova Yorqinoy Asqar qizi	
QURILISH SANOATIDA KORXONALARNI MOLIVALASHTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYALARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLARI.....	44
Igitov Jurabek Kuzibekovich	
ОСОБЕННОСТИ ВЫБОРА СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ МЕТАЛЛУРГИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА	50
Абдуллаева Матлуба Нематовна, Акбарова Муфаррах Мухитдиновна	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ КОМПЛЕКС-КОНТРОЛЯ В КОМПАНИЯХ С ГОСУДАРСТВЕННЫМ УЧАСТИЕМ В УЗБЕКИСТАНЕ	56
Халтурдиев Айтмурат Маратович	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING ICHKI BELGILARI	64
Saatova Lolaxon Ergashevna	
INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA OZIQ-OVQAT KORXONALARIDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI	71
Pulatov Abdullo	
MAJBURIY IJRO ETISH CHORALARINI TAKOMILLASHTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA.....	76
Axmedov Zafarjon Zokirjon	
МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ И ЭКОНОМИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ЕЁ РЕАЛИЗАЦИИ НА ПРЕДПРИЯТИИ ПО ПРОИЗВОДСТВУ ПОЛИМЕРНОЙ УПАКОВКИ	80
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
KORPORATIV KORXONALARDA KAPITALNI BUDJETLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	85
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
INNOVATSION MENEJMENTDA KOMMUNIKATSIYA VA TASHKILY MOSLASHUVCHANLIKNING ROLI: O'ZBEKISTON SHAROITI MISOLIDA	92
Atamatov Abdualil Salomovich	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING AHAMIYATI VA UNING SALOHİYATINI BELGILOVCHI OMILLAR	97
Qodirov Baxodir Tursunovich, To'rayev Qaxramon Zokirjonovich	



NAMANGAN VILOYATIDA AYOLLAR TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA TADBIRKORLIK MUHITINI BAHOLASH	103
Raximova Moxigul Isroiljonovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	107
Davitova Shaxzoda Doniyor qizi	
ANALYSIS OF THE FORMATION OF MARKET DEMAND AND THE ESTABLISHMENT OF EQUILIBRIUM IN A MARKET ECONOMY	112
Kamilova Nargiza	
BO'LAJAK FIZIKA O'QITUVCHILARINI NANOTEXNOLOGIYA SOHASIDAGI BILIMLARNI TAQDIM ETISHGA VA O'QITISHGA TAYYORLASH METODIKASI	115
Sottarov Abdulvali Umirqulovich	
INTEGRATING AI INTO STRATEGIC MANAGEMENT IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS	120
Uktamova Durdona Bakhtiyor qizi, Sultonali Umaraliyevich Mekhmonov	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA IJTIMOYIY HISOBOTLAR VA ULARNING AHAMIYATI	130
Sayfullayev Mexroj Sayfullayevich	
SANOAT KLASTERINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY JIHATLARI.....	135
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI	140
Yangiboev Rustam Berdiyrovich	
MINTAQA IQTISODIY O'SISH DRAYVERLARINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY XAVFLARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI.....	145
Turopova Nigora Xolmurod qizi	
ЭКОЛОГИЯ ТУРИСТА КАК МЕТОД СОЗДАНИЯ КОМФОРТНОЙ И УСТОЙЧИВОЙ СРЕДЫ ДЛЯ ПУТЕШЕСТВЕННИКОВ.....	149
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
BINO VA INSHOOTLARNI BARPO ETISHDA PREFABRIKATSIYALASHGAN HAMDA MODULLI QURILISH TIZIMLARINI AQLLI BOSHQARUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	152
Solijonov Javoxirmirzo Obidjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA AKSIYADORLIK TIJORAT BANKLARIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	163
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O'ZBEKISTONDA KO'CHAT YETISHTIRISHNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	169
Abdufarmonov Farrux Faxriddinovich	
O'ZBEKISTONDA EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SIFATI VA XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQLIGI TAHLILI	174
Safarova Muxabbat Radjabovna	
TIJORAT BANKLARI DEPOZIT SIYOSATI VA DEPOZIT BAZASI DINAMIKASINING BANK LIKVIDLIGIGA TA'SIRI	178
Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ISLOMIY MOLIYANING BANK TIZIMIGA INTEGRATSIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA TRANSFORMATSIYA YO'NALISHLARI	186
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
SAMARQAND VILOYATI SANOATINING HUDUDIY TARKIBINI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	190
Uralov Eliboy Omonovich	



DIVERSIFIKATSIYALASHUV ASOSIDA QURILISH TARMOG' I RIVOJLANISHINI KO'P OMILLI BOG'LANISHLAR ASOSIDA MODELLASHTIRISH.....	194
<i>Yembergenova Aynur Aydosbaevna</i>	
ЩЕБЕНОЧНО-МАСТИЧНЫЙ АСФАЛЬТОБЕТОН В КИТАЕ: СОСТАВ, СВОЙСТВА, ИННОВАЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ.....	201
<i>Карабаев Абдужаббор Мелиевич, Занг Хайфей</i>	
TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA SUBYEKTIV RISKNI SHAKLLANTIRUVCHI KOGNITIV OMILLAR VA ULARNI BOSHQARISH MEKANIZMLARI	205
<i>Abduxamid Abdumalikovich Bektemirov</i>	
HOMILADOR AYOLLAR UCHUN MAXSUS KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE'MOLCHILAR TALABLARINI O'RGANISH	211
<i>D.Sattarova, U.Vakhidova, D.Madiyarovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI DAROMADLARIGA TA'SIR ETUVCHI STATISTIK INDIKATORLAR TIZIMINING METODOLOGIK ASOSLARI VA ULARNING TAHLILYI IMKONIYATLARI	217
<i>Atayev Jaxongir Erkinovich</i>	
KICHIK BIZNES INVESTITSION KREDITLARINI TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MOLIYALASHTIRISH.....	221
<i>M.O.Yuldoshova</i>	
HUDUDNING "YASHIL IQTISODIYOT" ASOSIDA RIVOJLANISHINI TADQIQ ETISH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI VA BAHOLASH USULLARI	226
<i>Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li</i>	
O'ZBEKISTONDA SUV XO'JALIGI TIZIMIDAGI QAYTA TIKLANUVCHI HAVZALAR	231
<i>To'rayev Rasul Nortojiyevich, Seytov Aybek Jumabayevich, Uteuliyev Niyatbay Uteuliyevich, Haydarova Roziya Davronovna</i>	
KORXONALAR IQTISODIY BARQARORLIGINING NAZARIY MODELLARI VA SINERGETIK YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEKANIZMLARI	236
<i>Iminova Nargizaxon Akramovna</i>	
TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA SIYOSATI VA QIMMATLI QOG'OZLAR PORTFELINI BOSHQARISH STRATEGIYALARI	241
<i>Abduvaliyev Sanjar Abdurahmonovich</i>	
PAHTA VA MEVA-SABZAVOT YETISHTIRUVCHI FERMERLARDA TAVAKKALCHILIK XULQ-ATVORINING QIYOSIY TAHLILI: ISTIQBOL NAZARIYASI ASOSIDA.....	249
<i>Tadjiyev Abdusame Abduhamidovich</i>	
ФОРМИРОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВОЙ СТРАТЕГИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ В СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ.....	253
<i>Алиев Абдулазиз Исмаилович, Кахрамонова Азиза Шухрат кизи</i>	
QQS TIZIMI SAMARADORLIGINI XALQARO INDIKATORLAR ASOSIDA BAHOLASH	259
<i>Eshkarayev Bobir Chariyevich</i>	
QISHLOQ XO'JALIGIDA OZIYQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING INNOVATSION USULLARI	265
<i>Tadjimirzayev Anvar Abduvoxidovich, Batirova Raxima Abdujabborovna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH MEKANIZMINING AMALIY TAHLILLARI.....	273
<i>Hamroyev Sherzod Axtamovich</i>	
ПРОГНОЗИРОВАНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОГО СПРОСА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕТОДОВ МАШИННОГО ОБУЧЕНИЯ В РОЗНИЧНОЙ ТОРГОВЛЕ УЗБЕКИСТАНА.....	280
<i>Тен Марина Владимировна</i>	
O'ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O'RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI	287
<i>Sobitova Ra'no Solidjonovna</i>	



O'ZBEKISTON SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DASTURLARINING IMPORT O'RNINI BOSISHDAGI SAMARADORLIGI TAHLILI

Sobitova Ra'no Solidjonovna

Termiz davlat universiteti,
Iqtisodiyot kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD
ORCID: 0009-0003-8181-1615

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida 2015–2025-yillar oralig'ida amalga oshirilgan mahalliyashtirish dasturlarining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida import o'rnini bosish dinamikasi, sanoat kooperatsiyasi va yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish ko'rsatkichlari ko'rib chiqilgan. Maqola yakunida mahalliyashtirish jarayonlarini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mahalliyashtirish, import o'rnini bosish, iqtisodiy samaradorlik, sanoat kooperatsiyasi, yangi turdagi mahsulotlar, sanoat siyosati.

Abstract. This article analyzes the economic efficiency of localization programs implemented in the Republic of Uzbekistan between 2015 and 2025. The study examines the dynamics of import substitution, industrial cooperation indicators, and the development of new product types. The article concludes with recommendations for further improving localization processes.

Keywords: localization, import substitution, economic efficiency, industrial cooperation, new product development, industrial policy.

Аннотация. В данной статье анализируется экономическая эффективность программ локализации, реализованных в Республике Узбекистан в период с 2015 по 2025 годы. В ходе исследования рассмотрены динамика импортозамещения, показатели промышленной кооперации и освоения новых видов продукции. В завершение статьи представлены предложения по дальнейшему совершенствованию процессов локализации.

Ключевые слова: локализация, импортозамещение, экономическая эффективность, промышленная кооперация, новые виды продукции, промышленная политика.

KIRISH

Global iqtisodiy o'zgarishlar, xalqaro bozorlardagi beqarorlik va ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar sharoitida har bir davlat uchun ichki ishlab chiqarish salohiyatini mustahkamlash strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bunday sharoitda mahalliyashtirish siyosati iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, importga qaramlikni kamaytirish va milliy sanoatning raqobatbardoshligini oshirishning muhim vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish, mahalliy xomashyo va resurslardan samarali foydalanish hamda yangi texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston uchun mahalliyashtirish nafaqat import hajmini qisqartirish, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, eksport salohiyatini oshirish va milliy valyuta barqarorligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. So'nggi yillarda mamlakatda mahalliyashtirish siyosati "oddiy yig'ish" bosqichidan "to'liq texnologik sikllik ishlab chiqarish" bosqichiga bosqichma-bosqich o'tib bormoqda. Bu esa mahalliy korxonalarda yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

2015-yildan boshlab O'zbekistonda mahalliyashtirish dasturlari doirasida avtomobilsozlik, elektrotexnika, farmatsevtika, to'qimachilik, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoati kabi tarmoqlarda keng ko'lamli loyihalar amalga oshirildi. Mazkur jarayonlar sanoat ko'nepatiyasini mustahkamlash, yangi turdagi mahsulotlarni o'zlashtirish va ichki bozorda mahalliy mahsulotlar ulushini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi mahalliyashtirish dasturlarining so'nggi o'n yillikdagi real natijalarini statistik va ilmiy jihatdan baholash zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot davomida import o'rnini bosish dinamikasi, sanoat kooperatsiyasi ko'rsatkichlari, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish hajmi hamda mahalliyashtirish siyosatining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliyashtirishning mohiyati va o'ziga xos jihatlari, uning shakllari va bosqichlari, ushbu jarayonning innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish hamda import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishdagi o'rni va roli V.K. Akinfiyev, S.N. Kotlyarova, Yu.G. Lavrikova, L. Lozovskiy, B. Rayzberg, E. Starodubseva, A.M. Vazyanskiy, I.D. Kotlyarov, A.N. Muxanov, A.N. Makarov, V.Y. Markova, S.U. Obidenova va D.G. Shuvalova tadqiqotlarida keng o'rganilgan.

O'zbekiston olimlaridan M. Abdusalyamov, K.N. Abirqulov, T.M. Ahmedov, A. Abduvoxidov, M. Mahkamova, Sh. Nazarov, A.M. Sodiqov, A.S. Soliyev, S.U. Tojiyeva, F.T. Egamberdiyev, A.T. Yusupov, T.T. Jo'rayev va F.M. Murodxo'jayeva iqtisodiyotning turli sohalari bo'yicha ishlab chiqaruvchi kuchlarni samarali joylashtirish masalalari bilan shug'ullanganlar. Ular mahalliyashtirishni shunchaki import o'rnini bosish siyosati sifatida emas, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, xorijiy investitsiyalar va texnologiyalarni jalb qilish hamda qo'shilgan qiymatning global zanjirlariga kirishni ta'minlaydigan samarali mexanizm sifatida baholaganlar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy iqtisodiy baholash va statistik prognozlash metodlaridan foydalanildi. Ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutining rasmiy hisobotlari asos qilib olindi.

Tahlil jarayonida 2015–2020-yillardagi ekstensiv o'sish bosqichi va 2021–2025-yillardagi intensiv hamda innovatsion o'sish bosqichi ko'rsatkichlari o'zaro solishtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan tahlillar natijasida quyidagi asosiy ko'rsatkichlar aniqlandi:

2015-yilda mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi 1000 tadan kam bo'lgan bo'lsa, 2024-yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 3500 tadan oshib, barqaror o'sish kuzatildi.

2023-yil yakuni bo'yicha mahalliyashtirish loyihalari doirasida jami 2,8 mlrd AQSH dollari qiymatidagi import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarildi. 2025-yil uchun bu ko'rsatkich 3,1–3,3 mlrd AQSH dollariga yetishi prognoz qilinmoqda.

Tarmoqlar kesimida samaradorlik yuqori bo'lib, avtomobilsozlik sohasida UzAuto Motors tizimida mahalliyashtirish darajasi ayrim modellar, jumladan Chevrolet Tracker va Chevrolet Onix uchun 50–70 foizga yetdi.

Elektrotexnika yo'nalishida Uzeltexsanoat tarkibidagi korxonalar tomonidan ilgari to'liq import qilingan mis quvurlari, yuqori voltli kabellar va maishiy texnika qismlarini mahalliy ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Hududiy kooperatsiyaning rivojlanishi natijasida Navoiy viloyati, Toshkent va Andijon viloyati hududlarida sanoat klasterlari tashkil etilib, kichik biznes subyektlarining mahalliyashtirishdagi ulushi 25 foizga oshdi.

Birgina Issiqlik elektr stansiyalari AJ tizim korxonalarini tomonidan 2024-yilda mahalliyashtirish dasturi doirasida 26 ta loyiha asosida qiymati 58,9 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, amalda ushbu ko'rsatkich 61,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Natijada yillik reja 104,0 foizga bajarilib, o'sish sur'ati 127,4 foizga yetdi.

Kooperatsiya aloqalarini kengaytirish bo'yicha 200,0 mlrd so'm qiymatidagi xizmatlar va mahsulotlar xaridini amalga oshirish rejalashtirilgan bo'lsa, amalda ushbu ko'rsatkich 209,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Natijada reja 104,7 foizga bajarilib, o'sish sur'ati 116,0 foizni tashkil etdi.

Mahalliyashtirish va kooperatsiya aloqalari hisobiga 2024-yilda 20,1 mln AQSH dollari miqdorida importni optimallashtirish prognoz qilingan bo'lib, amalda ushbu ko'rsatkich 21,0 mln AQSH dollariga yetdi. Natijada prognoz ko'rsatkichi 104,2 foizga bajarilib, o'sish sur'ati 113,7 foizni tashkil etdi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mahalliyashtirish siyosati ijobiy natijalar bermoqda. Shu bilan birga, uni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun ayrim omillarga e'tibor qaratish lozim.

Xomashyo bazasini yanada rivojlantirish zarurati sababli ko'plab mahalliyashtirilgan mahsulotlar uchun ayrim butlovchi qismlar hali ham import qilinmoqda. Bu esa mahsulot tannarxini nisbatan yuqori darajada saqlab qolmoqda.

Shuningdek, innovatsion yondashuvlarni kengaytirish zarurati mavjud. Ishlab chiqarishda ilm-fan va amaliyot o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish yuqori texnologik mahsulotlar yaratish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda mahalliyashtirish siyosati faqatgina import hajmini qisqartirishga emas, balki eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Buning uchun ishlab chiqaruvchilarga beriladigan imtiyozlarni ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (R&D) bilan bog'lash maqsadga muvofiqdir.

Sanoat kooperatsiyasi portali imkoniyatlarini kengaytirish va hududiy korxonalar o'rtasidagi aloqalarni raqamlashtirish mahalliyashtirishning keyingi muhim drayveri bo'lib xizmat qiladi.

2015–2025-yillarda O'zbekiston sanoatida amalga oshirilgan mahalliyashtirish jarayonlarini tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- mahalliyashtirish dasturlari institutsional o'zgarishlar asosida importni kamaytirish vositasidan sanoatni modernizatsiya qilish va yangi tarmoqlarni, jumladan elektromobilsozlik hamda qayta tiklanuvchi energiya manbalari yo'nalishlarini rivojlantirish mexanizmiga aylandi;

- o'n yillik davr mobaynida import o'rnini bosuvchi mahsulotlar hajmining barqaror o'sishi ichki bozor samaradorligini ta'minlashga xizmat qildi;

- mahalliyashtirish jarayonlari sanoat kooperatsiyasi, hududiy klasterlar va kichik biznes subyektlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi;

- mahalliy ishlab chiqarish hajmining oshishi yangi ish o'rinlari yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish va milliy iqtisodiyot barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalari asosida sohani takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- mahalliyashtirish darajasini faqat mahsulot vazni yoki soni bilan emas, balki undagi intellektual mulk va yuqori texnologiyalar ulushi bilan baholash tizimini joriy etish orqali "aqli mahalliyashtirish" modeliga o'tish;

- mahalliy korxonalarini faqat ichki bozorga yo'naltirmasdan, ularni yirik xalqaro brendlar, jumladan Samsung, BYD va Siemensning global ta'minot zanjirlariga kichik butlovchi qismlar yetkazib beruvchi sifatida integratsiyalash;

- mahalliyashtirish dasturiga kirgan korxonalar uchun ilmiy tadqiqotlarga (R&D) sarflangan mablag'larni soliq bazasidan chegirib tashlash yoki imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmini kengaytirish orqali innovatsion faoliyatni rag'batlantirish;

- mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash bilan birga, bozorda sog'lom raqobat muhitini saqlash va mahsulot sifatini xalqaro standartlarga moslashtirishni rag'batlantirish;

- mahsulotlarni xalqaro standartlarga, jumladan ISO va CE talablariga moslashtirish orqali eksport imkoniyatlarini kengaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.08.2021 yildagi "Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-5231-sonli qarori, <https://lex.uz/docs/-5599666>
2. Makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar instituti yillik hisobotlari. – 2022–2024-yillar.
3. Sobitova R.S. Eksportga yo'naltirilgan mahalliyashtirish – import o'rnini bosuvchi mahsulotga bo'lgan talabni rag'batlantirish omili sifatida // Xorazm Ma'mun Akademiyasi axborotnomasi. – Xiva, 2023. – № 7/2. – B. 157–163.
4. Sobitova R.S. Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliyashtirishning yagona tizimini yaratish zaruriyati // "Iqtisodiy taraqqiyot va samarali boshqaruv: xalqaro tajriba, tendensiyalar va dolzarb masalalar" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to'plami. – 3-qism. – Samarqand, 2023. – B. 25–28.
5. Sobitova R.S. Kooperatsiyani rivojlantirishda sanoat klasterlarining roli // "O'zbekistonda yangi iqtisodiy islohotlar sharoitida ziyorat turizmini rivojlantirish: muammolar va istiqbollari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent, 2023. – B. 160–164.
6. Statistika agentligi statistik axborot tizimi. – <https://siat.stat.uz/>
7. Savdo-sanoat palatasi rasmiy sayti. – <https://tpp.uz/oz/>
8. Statistika agentligi. "Sanoat ishlab chiqarishi" statistik to'plami.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100